

“Open bank” AJ aksiyadorlari diqqatiga! Takroriy yig‘ilishni chaqirish to‘g‘risida E‘lon

Jamiyat aksiyadorlarining 2026-yil 23-aprel kuni soat 11:00 da belgilangan navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kvorum mavjud emasligi sababli o‘tkazilmagan deb topildi.

Shu munosabat bilan “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga asosan takroriy umumiy yig‘ilish chaqiriladi.

Takroriy yig‘ilish 2026-yil 24-aprel soat 16:00 da Toshkent shahri Yunusobod tumani, Shahrisabz ko‘chasi, 2-uy manzilida joylashgan binoda o‘tkaziladi.

Kun tartibi:

1. Bankning sanoq komissiyasi a‘zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. Bank Kuzatuv kengashi a‘zosining vakolatini muddatidan oldin tugatish hamda Kuzatuv kengashi tarkibidan chiqarish.
4. Bank Kuzatuv kengashi a‘zosini saylash.
5. Bank Boshqaruvining raqamlashtirish bo‘yicha hisobotini eshitish va tasdiqlash.
6. Bankning Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.
7. Bankning yangi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ushbu faoliyat yuzasidan yangi kollegial organi tashkil etish.
8. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi a‘zolarini saylash.
9. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi nizomini tasdiqlash.
10. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

Takroriy yig‘ilishda ishtirok etuvchi aksiyadorlar ro‘yxati avvalgi yig‘ilish uchun shakllantirilgan ro‘yxat, ya‘ni 2026-yil 17-aprel holatiga shakllantirilgan ro‘yxat asosida belgilanadi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida qatnashish va ovoz berish uchun, aksiyadorlarda shaxsni tasdiqlovchi hujjat, aksiyadorlar vakillarida esa qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo‘lishi lozim.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ko‘rib chiqiladigan masalalar bo‘yicha axborotlar (materiallar) bilan Toshkent shahri Yunusobod tumani, Shahrisabz ko‘chasi, 2-uy manzilida ushbu e‘lon berilgan kundan boshlab yig‘ilish o‘tkaziladigan kunga qadar soat 10:00 dan 17:00 gacha tanishish mumkin.

Elektron pochta manzili: office@openbank.uz

***Hurmat bilan,
“Open bank” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi***